

G'ARB OLIMLARINING JANUBIY OSIYO YADROVIY XAVFSIZLIGIGA OID TADQIQOTLARI

Muqaddas Hojimurodova

Annotatsiya: *Maqolada g'arb olimlarining Janubiy Osiyo yadroviy xavfsizligiga oid tadqiqotlari, ularning alohida xususiyatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *yadroviy xavfsizlik, g'arb tadqiqotchilari, Xitoy-Hindiston-Pokiston trilemmasi.*

KIRISH

Bugungi kunda Janubiy Osiyo yadroviy xavfsizligi dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri. Ushbu mintaqa azaldan eng beqaror mintaqa bo'lib kelmoqda. Hozirda esa Pokistondagi chuqur ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy inqirozlar, Afg'onistonda toliblar hukumatining o'rnatilgani, shu bilan birga mintaqada Hindistonning iqtisodiy-siyosiy qudrati kuchayganligi ham bu masalaning ahamiyatini oshiradi. Buning ustiga mintaqada Xitoy ta'sirining ortib borishi ham e'tiborga molik muammolardan bo'lib turibdi.

ASOSIY QISM

Janubiy Osiyoning yadroviy xavfsizligi masalasida ko'plab G'arb va Sharq, shuningdek, MDH tadqiqotchilari izlanishlar olib borgan. Ushbu maqolada biz bevosita g'arb olimlarining tadqiqotlari borasida fikr yuritamiz. Yer kurrasida yadroviy qurollar va texnologiyalar paydo bo'lgandan beri bu borada juda ko'p tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borib, ushbu fenomenning davlatlar va mintaqalarning xavfsizligiga ta'siri muammolarini o'rganib kelishgan. Shu jumladan, Janubiy Osiyo yadroviy xavfsizligiga oid izlanishlar asosan mintaqada yadroviy qurollar paydo bo'lgan yillardan hozirgacha bo'lgan vaqtga oiddir. Ushbu maqolada biz nisbatan zamonaviy tadqiqotlarni ko'rib o'tishga harakat qilamiz.

Bir qancha tadqiqotchilar asosiy e'tiborni Janubiy Osiyoning yadro quroliga ega ikki davlati - Hindiston va Pokistonning yadroviy strategiyasi va doktrinalariga qaratgan holda izlanishlar olib borgan. Jumladan, Thomas Hardeman «Hindiston va Pokistonning yadroviy strategiyasi» (India and Pakistan's nuclear strategy, IRHP, 2020)ga bag'ishlangan ilmiy tezislarda Hindiston va Pokistonning yadroviy doktrinalarini tarixiy kontekstda tahlil qilib, uning zamonaviy holatiga ham baho bergan. Paul K.Kerr va Mary Beth Nikitinlar ham «Pokistonning yadroviy qurollari» (Pakistan's Nuclear Weapons», Congressional Research Service, 2016) mavzusida qalam tebratib, uranning boyitilish jarayonlaridan tortib, yadroviy qurollarning rivojlanishi, yadroviy arsenal, ularning transportirovkasi masalalari, qo'mondonlik va nazorat tizimi, yadroviy qurollarning xavfsizligi, yadroviy qurollar texnologiyalarining tarqalishi masalalariga qadar tahlil qilgan. Shu bilan birga, ushbu mavzu bo'yicha Jonas Schneider, Toby Dalton va Michael Krepon, Andrew Koch va Jennifer Topping, Mark Fitzpatrick kabi mualliflar ham izlanishlar olib borgan.

Shuni qayd etish kerakki, Pokistonning yadroviy dasturi va bu boradagi tajriba va sinovlar jarayonidayoq xavfsizlik va maxfiylik rejimlari ta'minlanmagan bo'lib, bu butun dunyo hamjamiyati va ayniqsa, AQSh va G'arb davlatlarining xavotirlariga sabab bo'lib kelgan. Shu tufayli ham ko'pgina G'arb tadqiqotchilari ushbu masalaga katta e'tibor qaratib, bu mavzuda ko'pgina ilmiy izlanishlar natijalarini e'lon qilishgan. Bu borada Gordon Corera «Bombalar savdosi, yadro qurollarining tarqalishi, global xavfsizlik, va Abdul Qodir Xon tarmog'ining o'sishi va qulashi» (Shopping for Bombs, Nuclear Proliferation, Global Insecurity, and the Rise and Fall of the A.Q.Khan Network. Oxford University Press, 2006) va Adrian Levy, Catherine Scott-Clarklar «Aldov - Pokiston, AQSh va yadroviy qurollarning maxfiy savdosi» (Deception - Pakistan, USA and the Secret Trade in Nuclear Weapons, 2007) mavzularida maxsus izlanishlar olib borgan. Shu bilan birga, Janubiy Osiyo davlatlaridagi ichki beqarorliklar, xususan, Pokistonda radikalizm va terrorizm xavfining yuqori darajasi yadroviy qurollarning xavfsizligi masalasining dolzarbligini yanada oshiradi va terrorizm borasida qilinadigan tadqiqotlar obyekti bevosita yadroviy terrorizm masalalarini ham qamrab olishi mumkin. Shunday izlanishlar qatoriga Mark Fitzpatrickning «Pokistonning yadroviy xavfini bartaraf etish» (Overcoming Pakistan's Nuclear Dangers, IISS, 2013) va C.Christine Fairning «Oxirigacha kurashish. Pokiston armiyasining urush yo'li» (Fighting to the end. The Pakistan Army's Way of War. Oxford University Press, 2014) asarlarini keltirish mumkin.

Bundan tashqari, Janubiy Osiyodagi yadroviy xavfsizlik masalasiga tashqi aktorlar, ya'ni AQSh va Xitoy omilini hisobga olgan holda qarash tendensiyalarini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, ushbu masalani Xitoy, Hindiston va Pokiston trilemmasi kesimida tahlil qiluvchi tadqiqotchilar G'arb olimlari orasida ko'pchilikni tashkil qiladi. Misol uchun, Ashley J.Tellisning «Xitoy, Hindiston va Pokiston - yadroviy salohiyatning oshib borishi» (China, India and Pakistan - growing nuclear capabilities with no end in sight, Carnegie Endowment for Int.Peace, 2015) va Jingdong Yuanning «Janubiy Osiyodagi yadroviy trilemmaning tashqi va ichki drayverlari: Xitoy, Hindiston va Pokiston» (External and Domestic Drivers of Nuclear Trilemma in Southern Asia: China, India and Pakistan, Journal for Peace and Nuclear Disarmament, 2022) deb nomlangan ilmiy maqolalarini keltirish mumkin. Shuningdek, Ashley J.Tellisning «Hayratomuz assimetriyalar. Janubiy Osiyodagi yadroviy o'zgarishlar» (Striking Assymetries. Nuclear Transitions in Southern Asia, Carnegie Endowment for Int.Peace, 2022) nomli tadqiqoti ham Janubiy Osiyo yadroviy xavfsizligi muammosini Xitoy, Hindiston va Pokiston yadroviy dasturlarini batafsil yoritish bilan ochib berishga harakat qiladi.

XULOSA

Janubiy Osiyo yadroviy xavfsizligi masalasining dolzarbligi bu boradagi tadqiqotlarning keng ko'lamli bo'lishini talab etuvchi omildir va yuqorida ko'rib o'tganimizdek bu mavzu G'arb olimlari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Shu bilan birga, bu boradagi izlanishlarning yana davom etishi ham hozirgi zamon talabi

hisoblanadi. Janubiy Osiyo aholisi eng ko'p bo'lgan hudud hisoblanar ekan, ushbu hududda ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy muammolar va ikki yadro quroliga ega davlat - Hindiston va Pokiston raqibligi davom etar ekan bu masala hali zamon kun tartibidan tushmaydi va yangidan yangi tadqiqotlar olib borilishini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Thomas Hardeman, India and Pakistan's nuclear strategy. IRHP 2020.
2. Ashley J.Tellis. China, India and Pakistan - growing nuclear capabilities with no end in sight. Carnegie Endowment for Int.Peace, 2015.
3. Ashley J.Tellis. Striking Assymetries. Nuclear Transitions in Southern Asia. Carnegie Endowment for Int.Peace, 2022.
4. Jingdong Yuan, External and Domestic Drivers of Nuclear Trilemme in Southern Asia: China, India and Pakistan. Journal for Peace and Nuclear Disarmament, DOI:10.1080/25751654.2022.2158700.
5. Jonas Schneider, A Nuclear Deal for Pakistan? CSS Analysis in Security Policy, No. 187,2016 ETH Zurich.
6. Toby Dalton, Michael Krepon, A Normal Nuclear Pakistan. Stimson Center, Carnegie Endowment for Int.Peace, 2015.
7. Ken Berry, Protect! The Security of Pakistan's Nuclear Facilities. EastWest Institute, Policy Paper 2/2008.
8. Paul K.Kerr, Mary Beth Nikitin, Pakistan's Nuclear Weapons. Congressional Research Service, www.crs.gov, 2016.
9. Gordon Corera, Shopping for Bombs. Nuclear Proliferation, Global Insecurity, and the Rise and Fall of the A.Q.Khan Network. Oxford University Press, 2006.
10. Adrian Levy, Catherine Scott-Clark, Deception - Pakistan, USA and the Secret Trade in Nuclear Weapons, Walker Publishing Company, New York, 2007.
11. Mark Fitzpatrick, Overcoming Pakistan's Nuclear Dangers. IISS, 2014.
12. C.Christine Fair, Fighting to the End. The Pakistan Army's Way of War. Oxford University Press, 2014.